



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

**2022- YIL YANVAR-IYUL
OYLARI MA'LUMOTLARI**


**Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46**

Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-iyul oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6322,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 110,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (55,4 %) ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3502,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 19,3 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oylarida, % da)




Ishlab chiqaradigan sanoat




2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3502,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 55,4 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar-iyul oylarida, % da)**




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,2 % ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 4,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,6 % (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 3,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 17,0 % (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 20,3 %) va quyi texnologiyalisi – 74,2 % (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 71,8 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



Quyi texnologiyali




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % spirt	260,9	200,5	-60,4
Sellyuloza, kg 90%	758828	3814565	3055737
Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan gormonlar va antibiotiklar, t	3372,2	1116,3	-2255,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	31,5	38,3	6,8
Paxta tolasi, ming t.	11,8	13,9	2,1

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati
(yanvar-iyul oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,6 % ni, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,3 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 928,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyul oylarida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 9,6 % ga kamaygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 70,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 20,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-iyul oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 77,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 145,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1148,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyul oylarida)



FHI
% da



2020- y. 2021- y. 2022- y.

2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 150,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi 70,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 172,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar-iyul oylarida)

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 53,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 68,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



2020- y. 2021- y. 2022- y.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-iyul oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashkorxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2745,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (43,4 %) ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oylarida, % da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9233,7	9617,4	383,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	59,8	141,9	82,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar-iyul oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *(yanvar-iyul oylarida, % da)*



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	24790,5	21029,2	-3761,3
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1385,0	5249,1	3864,1
Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	8318,8	9050,2	731,4

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2693,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 127,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 42,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 38,8 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,9 % ni, Mirzaobod tumani 9,1 % ni hamda Guliston tumani 8,3 % ni tashkil etdi.
















Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatning o'sish sur'ati (127,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumani (172,0 %), Boyovut tumani (155,7 %), Guliston tumani (140,4 %), Sayxunobod tumani (130,0 %), Xovos tumani (126,5 %), Shirin shahri (126,3 %) hamda Sirdaryo tumanida (124,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2022-yilning yanvar-iyul oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>				
	2693,1			100			127,3				
Sirdaryo viloyati											
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	455,3	16,9	117,5		51,9	1,9	112,6				
Guliston sh				Sardoba							
	22,3	0,8	126,3		126,3	4,7	130,0				
Shirin sh				Sayxunobod							
	199,2	7,4	107,3		1041,1	38,8	124,2				
Yangiyer sh				Sirdaryo							
	151,8	5,6	155,7		114,4	4,2	126,5				
Boyovut				Xovos							
	223,7	8,3	140,4								
Guliston											
	246,1	9,1	172,0								
Mirzaobod											
	61,0	2,3	115,8								
Oqoltin											

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 48,6 % shuningdek, Mirzaobod tumani 11,7 %, Guliston tumani 11,2 % va Guliston shahri 11,2 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2022- yilning yanvar-iyul oylarida

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da			
	1781,2			100			139,2			
Sirdaryo viloyati										
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	6,0	0,3	101,2
	199,4	11,2	130,0		130,0	6,0	0,3			
Guliston sh				Sardoba						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	6,5	0,4	90,8
	13,2	0,7	160,1		160,1	6,5	0,4			
Shirin sh				Sayxunobod						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	865,0	48,6	131,5
	146,1	8,2	114,3		114,3	865,0	48,6			
Yangiyer sh				Sirdaryo						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	49,4	2,8	135,9
	70,4	4,0	210,8		210,8	49,4	2,8			
Boyovut				Xovos						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da							
	199,9	11,2	146,6							
Guliston										
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da							
	208,7	11,7	216,4							
Mirzaobod										
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da							
	16,6	0,9	97,6							
Oqoltin										

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga kelib 28,1 % ni, shuningdek, Sirdaryo 19,4 % ni, Sayxunobod 13,1 % ni, Boyovut tumanlari 8,9 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2022- yilning yanvar-iyul oylarida
















<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
911,9			100			109,1		
Sirdaryo viloyati								
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
255,9	28,1	109,4	45,9	5,0	114,2	Sardoba		
Guliston sh			Sardoba			<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
9,2	1,0	96,8	119,8	13,1	133,1	Sayxunobod		
Shirin sh			Sayxunobod			<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
53,1	5,8	91,8	175,9	19,3	97,4	Sirdaryo		
Yangiyer sh			Sirdaryo			<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
81,5	8,9	127,1	65,0	7,1	120,1	Xovos		
Boyovut			Xovos			<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
23,7	2,6	103,5						
Guliston								
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>						
37,5	4,1	80,2						
Mirzaobod								
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>						
44,4	4,9	124,5						
Oqoltin								

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2022- yilning yanvar- iyul oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1291,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.

Viloyatning hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

2022- yilning yanvar-iyul oylarida

	<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>			
	6322,9			100,0			110,5			
Sirdaryo viloyati										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	584,2	9,2	100,1		55,0	0,9	105,5			
Guliston sh				Sardoba						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	2621,8	41,5	115,3		253,5	4,0	104,3			
Shirin sh				Sayxunobod						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	335,8	5,3	94,0		1343,0	21,2	117,7			
Yangiyer sh				Sirdaryo						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	309,0	4,9	115,2		119,7	1,9	107,1			
Boyovut				Xovos						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	224,7	3,6	113,2							
Guliston										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	259,3	4,1	122,5							
Mirzaobod										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	216,9	3,4	103,0							
Oqoltin										

Viloyatning jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,5 %), Sirdaryo tumani (21,2 %), Guliston shahri (8,9 %), Yangiyer shahri (5,3 %) va Boyovut tumani (4,9 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.
















Eng past ko'rsatkich esa Sardoba (0,9 %) hamda Xovos (1,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (137315,6 ming so'm), Sirdaryo tumanida (10105,6 ming so'm) hamda Guliston shahrida (6150,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7162,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3050,5 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida – 7833,2 ming so'mni, Guliston shahrida – 4793,1 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 4364,6 ming so'mni, Mirzaobod tumanida – 3182,2 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2022- yilning yanvar-iyul oylarida, ming so'm**


	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	7162,1		3050,5		
Sirdaryo viloyati					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	6150,0	4793,1		803,7	758,7
	Guliston sh			Sardoba	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	137315,6	1169,2		3156,1	1572,0
	Shirin sh			Sayxunobod	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	7358,2	4364,6		10105,6	7833,2
	Yangiyer sh			Sirdaryo	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	2299,5	1130,2		1205,6	1152,3
	Boyovut			Xovos	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	2946,3	2932,2			
	Guliston				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	3352,3	3182,2			
	Mirzaobod				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	4005,9	1126,3			
	Oqoltin				

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1907,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sayxunobod (77,6 %), Xovos tumanlarida (77,1 %) hamda Guliston shahrida (62,8 %) kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Oqoltin tumanida (26,0 %), Sirdaryo tumani (47,7 %), Guliston tumanida (24,2 %) hamda Shirin shahrida (0,5 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2246 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 549 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Guliston shahriga, 371 tasi (16,5 %) Sirdaryo tumaniga, 191 tasi (8,5 %) Boyovut tumaniga, 191 tasi (8,5 %) Yangiyer shahriga, 181 tasi (8,1 %) Mirzaobod tumaniga, 172 tasi (7,7 %) Sayxunobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 214 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 45 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi (21,0 %) Guliston shahrida, 28 tasi (13,1 %) Sirdaryo, 28 tasi (13,1 %) Sayxunobod, 23 tasi (10,7 %) Guliston tumanida hamda 24 tasi (11,2 %) Mirzaobod tumanlarida tashkil etildi.